

communicate feedback. Developing these skills can greatly enhance a writer's overall capabilities and the quality of their work.

### **References**

1. Umarova M. (2024). The number and type of narrators in literary work. Interpretation and Researches, (8(30). // <http://interpretationandresearches.uz/index.php/iar/article/view/2465>
2. Morley D. Cambridge Introductions to Literature. - Cambridge: Cambridge University Press, 2007.-P.5
3. Scott Kaufman. The Psychology of Creative Writing. Cambridge University Press, 2009. - P.XV.
4. Sophie King. How to write short stories for magazines. - United Kingdom, 2010. - P.30
5. Steve May. Doing creative writing. - New York, 2007. - P.31.

## **TARJIMA MATNLARI TAHRIRIDA TIL VA USLUB**

***Munira NAZAROVA***

*O‘zJOKU PhD I bosqich doktoranti*

***Annotatsiya.*** Mazkur ilmiy maqola tarjima matnlari tahriri, xususan, publitsistik tarjima matnlari tahririning asosiy jihatlari: til va uslub masalasiga bag‘ishlangan. Unda tahrir jarayonida matn sifatini yaxshilashga xizmat qiluvchi bir qator bosqichlar orasida til va uslubning o‘ziga xosligi haqida so‘z boradi.

*Ushbu ilmiy maqoladan ko‘zlangan asosiy maqsad: jurnalistikada tarjima matnlari bilan ishlashda til va uslubning ahamiyatini ochib berish, so‘z qo‘llash borasidagi kamchiliklarimizni bartaraf etishdan iborat.*

***Kalit so‘zlar:*** matn, tahrir, muharrir, tarjima, publitsistika, tarjimon, atama, stilistik tahrir, uslub.

**Kirish.** Tarjima ham jarayon, ham mahsulotdir. Tajribali mutarjim asliyatdan tarjima matniga “aqliy sakrash” qilmaydi, chunki bir tildan ikkinchi tilga matni o‘girish jarayonida tillar o‘rtasidagi ma’lumotlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri tuzatishning imkoni yo‘q. Yaxshi tarjimon o‘z mahsulotini takomillashtirish va tahrirlash uchun vaqt ajratadi va uni malakali muharrir qo‘liga topshiradi.

Brayan Mossop “Tarjimonlar uchun: tuzatish va tahrirlash” kitobida tarjima matnini tahrirlash uchun quyidagi mezonlarni alohida ajratib ko‘rsatadi<sup>147</sup>:

- tarjimada: aniqlik va mukammallik;
- mazmunda: mantiq va dalillar;
- til va uslubda: stilistik, grammatik va idiomatik muvofiqlik;
- tarjima matnini taqdim qilish: tahririyat dizayni va tipografiya.

Quyida biz tarjima matni tahririda til va uslub me‘zonini ko‘rib chiqamiz va bu sohada uchrayotgan muammo va kamchiliklarni tahlil etamiz.

**Mulohaza va natijalar.** Muharrir tarjima matnini tahrirlashda eng avvalo, matn uslubini aniqlab olishi talab etiladi. Vazifasiga ko‘ra matnlar ilmiy, rasmiy, badiiy, publitsistik, va so‘zlashuv uslublarga bo‘linishidan kelib chiqib, tarjima matnlarining tahrir uslubi tanlanadi. Rasmiy, adabiy va publitsistik uslublarni o‘zida qamrab olgan ommaviy axborot vositalarining tili va uslubida tarjima matnlari tahriri alohida ahamiyat kasb etadi. Shuni alohida qayd etish kerakki, OAV materiallarini tahrir qilishda badiiy-publitsistik uslubning o‘zaro uyg‘un jihatlarini ham hisobga olishi kerak. Odatda gazeta va jurnallarda, axborot saytlari va televideniya publitsistik uslubdan keng foydalaniladi. Lotincha “publicis” – ijtimoiy degan ma‘noni bildiruvchi publitsistika adabiy-siyosiy ijod turi sanaladi<sup>148</sup>.

M.G. Dolgushinaning fikricha, publitsistik uslubni funkcionallikka ega nutq uslubi deb hisoblash mumkin. Ushbu uslubning janrlariga reportaj, intervyu va boshqalar kiradi<sup>149</sup>. A.N. Vasilyeva publitsistik uslubdan ko‘zlangan maqsadlardan biri ommaviy axborot vositalari (ommaviy kommunikatsiya) orqali jamiyatga ta‘sir o‘tkazishdir, deb hisoblaydi<sup>150</sup>. Bu uslubning asosiy xususiyati axborot va ta‘sirchanlikda ko‘rinadi.

Publitsistik uslubning leksik xususiyatlari siyosiy va ijtimoiy atamalar, ommaviy axborot vositalariga xos turg‘un iboralar, so‘z birikmalari, qisqartirmalar (abbreviatura), klishe va neologizmlarda, grammatik xususiyatlari matnlarda o‘zbek va sharq tillaridagi

<sup>147</sup> Mossap B. Revising and Editing for Translators. Manchester: Jerome – 2001. – 177 p.

<sup>148</sup> Xudoyqulov M. Jurnalistika va publitsistika. Toshkent: Tafakkur. – 2010. – 288 b.

<sup>149</sup> Долгушина Е.К. Особенности языка современной массовой прессы России (Лексический аспект): дис. ... канд. филол. наук / Е.К. Долгушина. Москва: – 2018. – 175 с.

<sup>150</sup> Васильева А.Н. Газетно-публицистический стиль речи Москва: Русский язык. – 2019. – 200 с.

gaplarning soʻz tartibi va qoʻshma gap muammolari, ularni tarjimada bartaraf etish masalalari, matndagi grammatik qonuniyatlarda namoyon boʻladi<sup>151</sup>. Shu nuqtai nazardan tarjima qilingan publitsistik matnlar tahririda soʻz qoʻllash va til meʼyorlariga amal qilish oʻta muhim sanaladi.

Kun.uz nashrining 2024-yil 23-fevralda nashr etilgan “Rossiyada yoʻlovchilar paroli va kartasi boʻyicha maʼlumotni yigʻish boshlanishi mumkin”<sup>152</sup> sarlavhali publitsistik tarjima matnini tahrirlashda yoʻl qoʻyilgan kamchiliklar va soʻz qoʻllash borasidagi muammolar xususida toʻxtalamiz. Tahrirga kirishishdan avval sarlavhadagi gʻalizlikni ochiqlash uchun publitsistik tarjimaning asliyatiga murojaat qilamiz. Havola orqali oʻtilganda dw.com nashrida 2024-yil 22-fevraldagi “В РФ хотят собирать данные о паролях и карточках пассажиров”<sup>153</sup> sarlavhali matning guvohi boʻlamiz. Maqola sarlavhasining tarjimasidayoq bir qator kamchiliklarni kuzatishimiz mumkin.

Birinchidan, maqola sarlavhasi soʻzma-soʻz tarjima qilingani bois sarlavha gʻaliz chiqqan. Bu vaziyatda maqola sarlavhasini stilistik tahrirlashda avvalo, xabar matni bilan toʻlaqonli tanishib chiqish talab etiladi. Xabar mazmunidan Rossiya transport vazirligi yoʻlovchilarning bank kartalari, IP manzili, telefon va elektron pochta parollarini yagona maʼlumotlar bazasiga biriktirish majburiyatini rejalashtirayotganligini koʻrishimiz mumkin. Natijada Rossiya federal xavfsizlik xizmati, ichki ishlar vazirligi hamda boshqa bir qator tashkilotlar yagona baza orqali bu maʼlumotlarni qoʻlga kiritish imkoniga ega boʻladi.

Ushbu publitsistik xabar matnini tarjima va tahrir qilishda sarlavhani nafaqat stilistik jihatdan, balki asliyatda sarlavha tanlashda yoʻl qoʻyilgan kamchiliklarini tuzatgan holda tahrirlash oʻrinli boʻladi. Yaʼni bu oʻrinda sarlavhani “Rossiyada yoʻlovchilarning shaxsiy hisob maʼlumotlariga daxl qilish rejalashtirilmoqda”, deb oʻzgartirish maqsadga muvofiqdir. Chunki gap faqat yoʻlovchilarning bank kartasi va paroli xususida emas, balki ularning barcha maʼlumotlari – IP manzili, telefon va hatto elektron manzili va paroli xususida ham ketmoqda.

<sup>151</sup> Hamidov X. Matn tarjimasi va tahriri. Toshkent: TDSHU. – 2020. – 176 b.

<sup>152</sup> <https://kun.uz/news/2024/02/23/rossiyada-yolovchilar-paroli-va-kartasi-boyicha-malumatni-yigish-boshlanishi-mumkin>

<sup>153</sup> <https://www.dw.com/ru/mintrans-rf-hocet-sobirat-dannye-o-parolah-i-kartockah-passazirov/a-68339118>

Ikkinchidan, biz texnologiya yoki boshqa soha atamalarini tarjima qilish va ularni tahrirda qo'llashda, o'zbek tili leksikasiga singdirishda ayrim kamchiliklarga yo'l qo'yamiz. Ko'pincha, atamalarni, yangi so'zlarni qaysi tildan kirib kelgan bo'lsa, shu holicha, sayqal bermasdan, o'zbek tili uslubiga moslamasdan qo'llashga ko'nikib qolganmiz. Natijada, o'zbek tilining soflik maydoni chetdan kirib kelayotgan yangi so'zlar, atamalar hisobiga qisqarib boraveradi. Yuqoridagi sarlavhada qo'llanilgan "parol" atamasini ko'rib chiqamiz. Parol – harbiy xizmatda yoki yashirin tashkilotlarda o'z kishilarini tanish uchun aytiladigan va oldindan belgilab qo'yiladigan shartli maxfiy so'z<sup>154</sup>. Asli fransuzcha "parole" so'zidan to'g'ridan to'g'ri qabul qilingan ushbu atama rus tilida ham qanday bo'lsa, shundayligicha qo'llaniladi. Ammo turk tilida bu so'z "şifre" tarzida qo'llaniladi. Agar ushbu atamaning turk tili etimologiyasiga nazar tashlaydigan bo'lsak, "şifre" fransuz tilidagi "chiffre" – raqamlashtirmoq so'zidan olingan. Qizig'i, fransuz tiliga ushbu so'z italyan tilidagi "cifra" so'zidan kirib kelgan bo'lib, uning ikki xil ma'nosi bor: birinchisi, turk tilidagi sifir, ya'ni nol, ikkinchisi arap raqamlari ma'nosini beradi. Italyan tiliga esa bu so'z arab tilidagi – صفر – "shefr" so'zidan kirib kelgan.

O'zbek tilida ham "parol" atamasi o'rnida qo'llash mumkin bo'lgan asl turkiy so'zlar mavjud. Masalan, Orif Tolib o'z telegram sahifasida bu haqida asosli mulohazalarni keltirib o'tadi. Avvalo, "parol" atamasi o'rnida "im" so'zini qo'llash mumkinligini aytib, bu aynan maxfiy so'z ma'nosini anglatishini Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'ati turk" asaridan keltirilgan misol orqali isbotlaydi: "Mahmud Koshg'ariy "Devonu lug'atit turk"da im so'zini shunday sharhlaydi: shoh askarlariga qo'yilgan, tayinlangan yashirin belgi, parol. Bu belgi qush yoki qurol nomi, yoki biror so'zdan iborat bo'lishi mumkin. To'qnashganda uni aytib o'zlarini tanitadilar. Maqolda shunday kelgan: "Im bilsa, er o'lmas". Ya'ni kishi yashirin belgini bilsa, nohaq o'lmaydi"<sup>155</sup>. Shu bilan birga, "Boburnoma"da "parol" atamasining o'rnida qo'llash mumkin bo'lgan so'z – "o'ron" ekanligini izohlaydi: "Bizning cherikning g'avg'osin

<sup>154</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati. P harfi. A.Madvaliyev tahriri ostida. Toshkent: O'zFA. – 2006-2008. – 135 b.

<sup>155</sup> <https://t.me/oriftolib>

eshitib, inchalik bila ilgarrak kelib o‘rondashurlar. Bu o‘ron ikki nav bo‘lur: bir ulkim, har qavmning o‘roni bor, nechukkim, ba’zi qavmning o‘roni “durдона”dur va ba’zining “tuqqay”, ba’zining “lulu”; yana bir tamom cherikka ish mahalida ikki lafzni o‘ron qo‘yarlarkim, ish vaqtida uchrashqonda biri bir lafzni aytqonda yana biri ul ma’hud lafzni aytqay, to bu tariq bila el yog‘idin ayrilgay va o‘z kishini yotdin farq qilg‘ay. Ul yurushta ma’hud o‘ron alfazi “Toshkand” bila “Sayram” edi. Toshkand desa, Sayram deyilgay, Sayram desa – Toshkand”<sup>156</sup>. Bu o‘rinda o‘ron, ya’ni parol ikki turga ajralishi: bir so‘zli va ikki so‘zli bo‘lishi haqida gap ketmoqda. Ayrim qishloq ahli bir so‘zli o‘ronni maxfiy so‘z sifatida tanlab olgan bo‘lib, ular tanlagan o‘ronni aysangiz, qishloq ahldan ekanligingiz ayon bo‘ladi. Ikki so‘zli o‘ronda esa bir so‘z aytilsa, uning jufti orqali javob qaytarilishi kerak bo‘lgan. Masalan, “Toshkent” deyilsa, ikkinchi tomon “Sayram” deb javob berishi kerak bo‘lgan.

Badiiy publitsistik tarjima matnlari tahririda til va uslub bilan bog‘liq bunday misollarni istalgancha topish mumkin. Muhimi, tarjima matnlar tahriri jarayonida atamalar, so‘z qo‘llash va stilistik xatolarni oldini olish, o‘zbek tilining jozibadorligini oshirish asosiy maqsad bo‘lib qolishi kerak.

**Xulosa** o‘rnida, quyidagi taklif va tavsiyalarni keltiramiz:

Birinchidan, har qanday tarjima matnlarni tahrir qilishda matn uslubini aniqlagandan so‘ng, uning til me‘yorlariga muvofiqligi yuzasidan tahrir qilishga asosiy e‘tiborni qaratish zarur.

Ikkinchidan, publitsistik matnlar tarjimasida uchrayotgan xato va kamchiliklarni tahrir jarayonida tuzatgach, muharrir bu bo‘yicha o‘z xulosalarini taklif etishi maqsadga muvofiq. Bu ham tarjimonlarga, ham tarjima matnlari tahriri bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislariga qo‘llanma bo‘ladi.

Uchinchidan, tarjima qilingan matnlarda qo‘llanilgan yangi so‘z, atama yoki iboralarni o‘zbek tiliga muvofiqlashtirish zarur. Ayniqsa, texnik atamalar va kasbiy faoliyatlarga oid yangi so‘zlarni asl holicha tilimizga singib ketishining oldini olib, ushbu

---

<sup>156</sup> Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. Toshkent: Yangi asr avlodi. – 2018. – 704 b.

soʻzlarning oʻzbekcha muqobilini qoʻllash maqsadga muvofiq. Bu til va uslubda oʻziga xoslikni saqlashga yordam beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati**

1. Mossap B. Revising and Editing for Translators. – Manchester: Jerome – 2001. – 177 p.
2. Xudoyqulov M. Jurnalistika va publitsistika. – Toshkent: Tafakkur. – 2010. – 288 b.
3. Долгушина Е. К. Особенности языка современной массовой прессы России (Лексический аспект): дис. ... канд. филол. наук. – Москва, 2018. – 175 с.
4. Васильева А. Н. Газетно-публицистический стиль речи. – Москва: Русский язык. – 2019. – 200 с.
5. Hamidov X. Matn tarjimasi va tahriri. Toshkent: TDSHU, 2020. – 176 b.
6. <https://kun.uz/news/2024/02/23/rossiyada-yolovchilar-paroli-va-kartasi-boyicha-malumotni-yigish-boshlanishi-mumkin>
7. <https://www.dw.com/ru/mintrans-rf-hocet-sobirat-dannye-o-parolah-i-kartockah-passazirov/a-68339118>
8. Oʻzbek tilining izohli lugʻati. P harfi. A. Madvaliyev tahriri ostida. –Toshkent: OʻzFA. – 2006-2008. – 135 b.
9. <https://t.me/oriftoLib>
10. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018. – 704 b.

## **ETHNOGRAPHIC REALIA' S TRANSLATION FEATURES**

**Shoira DJABBAROVA**

*Doctor of Philosophy  
in Philological Sciences (PhD)*

*Senior Lecturer at Termez State University*

**Abstract.** *The given article deals with study of ethnographic realia lexicon as well as interrelation of language and culture and analysis of which lies within translation, which is one of the most significant branches of modern linguistics. The aim of this research is to delve into the translation problems of ethnographic realia.*

**Key words:** *Lingo culture, ethnographic realia, translation of realia, the analysis of the corpus, English translation techniques.*